

EKOLOGIYANING RIVOJLANISHGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIIY OMILLARI

Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich 1

Annotatsiya: Maqolada toza ichimlik suvi muammosi, chiqindilar muammosi, epidemiyalar, yerning sho'rlanishi, xavoning xaddan tashqari ifloslanishi kabi masalalarda fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Toza ichimlik suvi muammosi, chiqindilar muammosi, epidemiyalar, yerning sho'rlanishi, xavoning xaddan tashqari ifloslanishi.

Mamlakatimizda qator sohalarda bo'lgani kabi shaharlar rivojiga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Buning uchun xukumat darajasida qator hujjatlarlar rasmiylashtirilib, ularning ijrosini prezidentning o'zi kuzatib bormoqda. Hozirgi kunga kelib ushbu sohada bir qator muvaffaqiyatli ishlarni sanab o'tish mumkin. Ammo xal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudki ularni bartaraf etish juda muhim. Bular qatoriga toza ichimlik suvi muammosi, axlat tashib ketish, epidemiyalar, transport xizmati, oziq-ovqat muammolari, yerning sho'rlanishi, xavoning xaddan tashqari ifloslanishi singari masalalarni kiritish mumkin.

Ta'kidlash joizki bugungi kunda mamlakatimiz shaharlarida xavoning ifloslanish xolatlari ko'payib borayotganligi kishini xavotirga soladi. Atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi sifatida umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Inson suvsiz bir necha kun chidashi mumkin, ovqatsiz hatto bir oy yashay oladi, havosiz esa bir necha daqiqagina yashaydi. Inson salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatishi sababli atmosfera havosining ifloslanishi har doim tashvish uyg'otgan. Havoning ifloslanishi inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, allergiya va nafas olish tizimi kasalliklarini keltirib chiqaruvchi sabablardan biri hisoblanadi¹. Aynan shuning uchun biz nafas olayotgan havoning sifatli bo'lishi juda muhim hisoblanadi.

O'zbekistondagi va dunyodagi deyarli har bir yirik shaharlar atmosferasida yuqori miqdorda ifloslantiruvchi moddalarni kuzatish mumkin, ular ekotizim va aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Urbanizatsiya (shaharlashish) jarayonlarining tezlashishi ham havo ifloslanishining kuchayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugun aholining yarimdan ko'pi shaharlarda yashaydi, shaharlar bir tomondan ko'pincha ifloslanish manbai bo'lsa, boshqa tomondan, aynan shu yerda havo ifloslanishining oqibatlari ayniqsa kuchli seziladi².

Shaharlarda mavjud muammolardan yana biri bu – toza ichimlik suvi muammosidir. Bugun nafaqat shaharda qishloqlarda ham toza ichimlik suvi muammosi yetakchi o'rinda turibdi. Buning qator sabablari mavjud. Aholini

¹ <https://monitoring.meteo.uz/uz/menu/monitoring-zagrzazneniya-atmosfernogo-vozduha>

² <https://ekolog.uz/?p=341&lang=ru>

kommunal-maishiy sharoitini yaxshilanib borayotganligi, megashaharlarni vujudga kelish jarayonini tezlashayotganligi ham ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Aholisi 300-500 ming atrofidagi o'rtacha kattalikdagi Samarqand, Buxoro, Namangan kabi shaxarlarda aholi jon boshiga bir sutkada 130-150 litr suv sarflansa, axolisi 3 milliondan ortiq Toshkent, Moskva, Parij, Vashington kabi mega shaharlarda esa bu ko'rsatkich 350-600 litrni tashkil etadi³. Yuqoridagi ko'rsatkichlar shaharlarda toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojni oshishiga olib kelmoqda.

«Uorlduotch» jurnalida chop etilgan ma'lumotga ko'ra, rivojlanish yo'lidagi mamlakatlarda barcha kasalliklarning 80 foiziga sabab qilib, toza ichimlik suvi ta'minotini qoniqarli emasligi ko'rsatilmoqda. Afrika malakatlarida xar yili 25 million kishini yuqumli kasalliklardan, epidemiyalardan vafot etishiga ham aynan shu omil sabab bo'lmoqda. Shaharlarda toza suv ta'minotining yomonlashuvi yoki nazoratni susaytirilishi ko'plab kishilarga fojia keltirishi mumkin. Masalan, o'ta rivojlangan mamlakatlardan xisoblangan Amerika davlatining Viskonsin shtatida 1993 yilda 400000 kishi xlorlangan ichimlik suvida ham yashay oladigan mikroblar paydo bo'lganli sababli kasallikka chalinishgan. Ichimlik suvi muammosi O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Respublikamizda ishlatiladigan suvni shartli ravishda 100 foiz deb oladigan bo'lsak, uning 85 foizi qishloq xo'jaligida ishlatiladi. Ta'kidlash joizki yerning sho'rlanishiga ham aynan suvlarning notekis harkatlanishi sabab bo'ladi. 12 foiz suv sanoat uchun va qolgan 3 foizgina suv odamlar ehtiyojiga sarflanadi. Shu omillar hisobiga yildan-yilga suvni sifat darajasi yomonlashib borayotganligi kuzatilmoqda. Sanoat korxonalari tomonidan daryo va suv havzalariga tashlanadigan chiqindi suv takibidagi meniral va og'ir metall tuzlarining qoldiqlari yer osti suvlari sifatini ham buzmoqda. Natijada ayrim xudularda yerning sho'rlanish xolatlari yuzaga chiqmoqda.

Dunyo statistikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bundan ham og'ir manzaraning guvohi bo'lishimiz mumkin. hozir dunyoda 250dan ortiq mamlakat bo'lsa, ularning 80 tasida ichimlik suvi masalasi muammoligicha qolmoqda. Ayniqsa, bu mamlakatlar aholisi zich va ko'p bo'lgan Osiyo va Afrika qit'asiga to'g'ri kelishi vaziyatni yanada og'irligini ko'rsatmoqda⁴.

Respublikamizda ichimlik suvining ta'minoti bilan bog'liq muammolar va bundan kelib chiqadigan ekologik vaziyatni barqarorlashtirish uchun davlat siyosati darajasidagi keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1992 yilda Respublikamiz Prezidenti tomonidan «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi qonun, 1998 yilda Vazirlar Maxkamasining 147-sonli «Sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori, 2000 yilda tasdiqlangan «Ichimlik suv sifatini nazorat qilish» to'g'risidagi davlat standarti kabi qaror va yo'riqnomalar 2017 — 2021 yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ning qabul qilinishi ushbu fikrlar isboti bo'la oladi.

³ <https://ekolog.uz/?p=341&lang=ru>

⁴ <https://www.lex.uz/acts/3174685>

Shaharlarda toza ichimlik suvi bilan ta'minlash sohasida xal etilishi lozim bo'lgan qator vazifalar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- suv olish, kanalizatsiya inshootlari hamda vodoprovod tarmoqlarining yangilarini qurish, mavjudlarini qayta tiklash va rekonstruksiya qilish, shuningdek, suv ta'minoti tashkilotlarining moddiy- texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy uskunalar, mashinalar, mexanizmlar, ta'mirlash-foydalanish va o'lchov texnikasi bilan jihozlash;

- suv ta'minoti sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan, iste'mol qilingan suv va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish;

- ichimlik suvi ishlab chiqarishning texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish, belgilangan talablarga muvofiq suvning sifatli bo'lishini ta'minlash, ishlab chiqarish jarayoniga energiya hamda suvni tejaydigan texnologiyalar va uskunalarini tatbiq etish;

- suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini, shu jumladan, davlat bilan xususiy sektor sherikligi asosida boshqaruvning bozor tamoyillariga mos keladigan mexanizmlarini joriy etish;

- suv ta'minoti tashkilotlarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga narx shakllantirish tartibini takomillashtirish.

Bugungi kunda chiqindi muammosi nafaqat O'zbekistonni balki butun dunyo aholini tashvishga solmoqda. Urbanizatsiya jarayoni jadallashib, shaharlar kengayayotgan, aholi soni o'sayotgan va uning ehtiyojini qondirish uchun millionlab turdagi tovarlar ishlab chiqarilayotgan bir paytda chiqindilarni qayta ishlash va ularning utilizatsiyasi eng katta ekologik muammolardan biridir.

Ta'kidlash joizki ularning tashib ketish va zararsizlantirish katta muammolardan biridir. Chiqindixonalar ichida ko'plab xavfli chiqindilar ham mavjud: batareykalar ichidagi simob, flyuorissent lampalardagi fosfor- karbonatlar va maishiy eritmalaridagi toksik kimyoviy moddalar, buyoqlar, yog'och buyumlarni asrash uchun ishlatiladigan turli xil kimyoviy qoplamalar bunga misol bo'la oladi. Chiqindilarning ko'payishiga asosiy sabablardan biri aholi ehtiyojlarini qondiradigan buyumlarning ishlatiladigan muddatining qisqaligidir. Bir martalik qog'oz va plastik idishlar, kiyimlar, boshqa buyumlardir. Chiqindilarni qayta ishlash bugungi kunda zamon talabidir. Ayniqsa bu muammo sanoati rivojlanib borayotgan shaharlarda dolzarbdir. Ayni paytda yirik shaharlar chiqindisi uning tashqarisiga olib chiqilib tashlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda qayta ishlanishga yaroqsiz materiallar esa biogaz, bioquvvatga aylantiriladi. Bizdachi? O'zbekistonda faqatgina plastik, qog'oz, polietilen, shisha, karton qayta ishlanadi. O'zida zaharli kimyoviy moddalarni mujassam etgan maishiy chiqindilar, batareykalar afsuski qayta ishlanmaydi. Ular hattoki saralanmay, umumiy chiqindilar bilan poligonga chiqarib tashlanadi. Chiqindilarning chirish muddati esa uch avlodni ortda qoldiradi.

Xulosa o'rnida aytish joizki shaharlar taraqqiyotida ekologik muammolarni

bartaraf etish muhim o'rin egallaydi. Zero ekologik muammolar shahar axolisi xayotining yaxshi yoki yomon tomonga o'zgarishida asosiy omillardan hisoblanadi. Shunday ekan shaharlardagi ekologik muammolar o'zidan boshqa muammolar keltirib chiqarmasdan avval ularni xal etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmirzayev N.N. Key features and factors of modern urbanization. *Ekonomika i sotsium*, 2021- elibrary.ru №1-2, 652-653 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45593716>
2. NN Holmirzaev Eastern and western experience of labor culture <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=38564222>
3. Xolmirzaev N.N. Urbanizatsion taraqqiyot rivojida kimyo sanoati omili. *Ekonomika i sotsium*, 2021- elibrary.ru №11-2, 625-627 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=47780854>
4. Xolmirzayev N.N. Evolution of social activity and some aspects of its formation in young people. *Ekonomika i sotsium*, 2021- elibrary.ru №2- 1, 395-396 <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45679718>

